

109. 8 sonini ko'paytirish va 8 ga ko'paytirish

Yondosh mavzu:
o'yinlar.

Ko'paytuvchi, ko'paytma.




Sehrli
kvadratni
to'ldiring.

☆ 150 ☆

33		44	
38		35	
	40		
45		32	42

1. Rasm bo'yicha aniqlang.

- Shaxmat o'yini uchun o'lchami 8×8 katakli taxtadan foydalaniladi. Shaxmat taxtasida jami nechta katak bo'ladi?
- O'yin boshida taxtada nechta oq shaxmat donalari bo'ladi?
- Taxtada jami nechta shaxmat donalari bo'ladi?



2. Yozing va hisoblang.


$8 \cdot 1$	$8 \cdot 3$	$8 \cdot 5$	$8 \cdot 7$	$8 \cdot 9$
$8 \cdot 2$	$8 \cdot 4$	$8 \cdot 6$	$8 \cdot 8$	$8 \cdot 10$

8 ga ko'paytirish jadvali

a	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$a \cdot 8$	8	16	24	32	40	48	56	64	72	80

3. Hisoblashlarni algoritm bo'yicha bajaring va natijalarni o'sish tartibida joylashtiring. Xitoyda shaxmatga o'xshash o'yin qanday ataladi?

	A	I	S	Y	N	S
x	2	4	5	6	7	8
y						




109. 8 sonini ko'paytirish va 8 ga ko'paytirish



4. Ifoda tuzing va uni yeching.

Malika bilan Madina bryulki – tayoqchalar bilan o'ynaladigan stol o'yini o'ynadi. To'plamda har biri 8 tadan bo'lgan 5 turdagi tayoqchalar bor. Ular stol ustiga bir to'p qilib uyib qo'yilgan. Qizlar navbat bilan uyumdan qolganlari sochilib ketmaydigan qilib bittadan tayoqcha tortib oladilar. Agar uyumdan Malika 4 ta, Madina esa 3 ta tayoqcha olgan bo'lsa, uyumda nechta tayoqcha qolgan?



5. Sxemani daftaringizga chizing va to'ldiring. Masalani yeching. Shaxmat turniriga 24 kishi, shashka turniriga esa ulardan 16 nafar kam kishi yozildi. Shaxmat turniri shashka turniridan necha marta ko'p ommalashgan.

Shaxmat: _____
Shashka: _____

Necha marta?



6. a) 32 soni 8 dan necha marta katta? 32 soni 8 dan nechta ortiq?
b) 5 soni 40 dan necha marta kichik? 5 soni 40 dan nechta kam?



7. Hisoblang, faqat uch xonali sonlarni yozing. Bu sonlarni kamayish tartibida joylashtiring va yana bir qadimiy o'yinning nomini bilib oling.

A $148 - (8 \cdot 2)$

D $99 + (8 \cdot 1)$

E $129 - (9 \cdot 8)$

R $(8 \cdot 6) + 75$

K $56 + (7 \cdot 3)$

N $220 - (10 \cdot 8)$

I $81 + (8 \cdot 3)$

S $(8 \cdot 8) - 14$



8. Lola bilan Zulfiya so'z o'yini o'ynadi. Lola 8 ta so'z, Zulfiya esa 8 ta ko'p so'z o'yladi. Zulfiya Loladan necha marta ko'p so'z o'yladi?